

Mualliflarga

"Irrigatsiya va Melioratsiya" ilmiy-texnik jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2015 yil 4 martda ro'yxatdan o'tkazilgan (guvoxnama №0845).

Jurnal muassisi: O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti.

Xalqaro standart seriya raqami - ISSN 2181-8584

"Irrigatsiya va Melioratsiya" ilmiy-texnik jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Prezidiumining 2015 yil 22 dekabrdagi №219/5 sonli qarori bilan 05.00.00-Texnika fanlari, 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari, 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiya natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Irrigatsiya va Melioratsiya" ilmiy-texnik jurnali bir yilda 4 marta har chorak yakunlari bilan chop etiladi.

Maqolalarini chop etuvchi mualliflardan maqolalar uchun to'lovlar talab etilmaydi.

Etika me'yorlari va mualliflik huquqi

MUALLIF BAYONOTI

Maqola sarlavhasi:

Barcha mualliflarning to'liq ismlari (qo'lyozmada ko'rsatilgan tartibda):

"Irrigatsiya va Melioratsiya" jurnalida maqolangizni nashr qilish uchun ushbu shakl birinchi muallif tomonidan imzolanib, jurnalning veb-saytida maqola bilan birga yuklanishi kerak.

Sizning imzoingiz quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Maqolada keltirilgan natijalar (yoki ularning har qanday qismi) boshqa jurnalga chop etish uchun yuborilmagan va oldin nashr etilmagan;
- yuborilgan maqolada boshqa tadqiqotlarning natijalari tegishli iqtiboslarsiz ishlatilmagan;
- barcha hammualliflar ushbu maqolaning to'liq matnini jurnal veb-sahifasiga joylashtirishga va iqtiboslarni internetdagi bazalarga kiritishga Creative Commons 4.0 CC BY-SA litsenziyasi shartlariga muvofiq rozilik bildiradilar;
- barcha hammualliflar natijalarni olishda faol ishtirot etgan;
- barcha hammualliflar ekspertizadan o'tkazilgan o'zgartirishlardan keyin ham maqolaning nashr etilishiga rozilik bildiradilar;
- agar tadqiqot milliy yoki xalqaro qonun va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha kelishuvlar bilan himoyalangan joylarda o'tkazilgan bo'lsa, mualliflar barcha kerakli ruxsatnomalarga ega;
- maqolaning mazmuni va yozilishiga faqat mualliflar javobgardir.

Barcha mualliflar tahririyat bilan bog'liq xat-xabarlar quyidagi manzilga yuborilishiga rozilik bildiradilar:

FIO:

Manzil:

E-mail:

Telefon:

Sana:

Birinchi muallifning imzosi:

Imzolangan deklaratsiyasisiz maqolalar qabul qilinmaydi!

Mualliflik huquqi variantlari

"Irrigatsiya va Melioratsiya" jurnalida chop etiladigan maqolalar ochiq kirish (Open Access) maqolalar hisoblanadi va ular Creative Commons Attribution License CC BY-SA 4.0 litsenziyasi asosida nashr etiladi. Ushbu litsenziya foydalanuvchilarga materialni istalgan formatda va vositada tarqatish, tahrirlash, moslashtirish hamda unga asoslangan yangi asarlar yaratish imkonini beradi, agar asarning muallifiga tegishli tarzda havola keltirilgan bo'lsa. Litsenziya tijorat maqsadlarida foydalanishga ham ruxsat beradi. Agar siz materialni qayta ishlasangiz yoki asosida yangi mahsulot yaratsangiz, u holda yangi material ham xuddi shu litsenziya asosida tarqatilishi kerak. CC BY-SA litsenziyasi quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi: "BY" - asarning yaratuvchisi ko'rsatilishi shart, "SA" - yaratilgan yangi materiallar ayni litsenziya asosida ulashilishi kerak.

Biz faqat original, plagiattdan holi va ilgari hech qayerda chop etilmagan maqolalarni qabul qilamiz. Maqola hozirda boshqa jurnalda ko'rib chiqilmayotgan bo'lishi kerak va barcha hammualliflar uning yakuniy nashr variantini tasdiqlagan bo'lishlari lozim. Barcha mualliflar maqola qabul qilingan taqdirda mualliflik huquqini avtomatik ravishda nashriyotga o'tkazishga rozilik bildiradilar.

Mualliflar mualliflik huquqini topshirish to'g'risidagi shartnomalar (Copyright Transfer Agreement) va maqola bilan birga yuboriladigan yo'llanma xatini (Cover Letter) ushbu yerda yuklab olishlari mumkin. Ushbu hujjatlar muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, jumladan mas'ul muallif kim bo'lishi ko'rsatiladi hamda agar maqolada minnatdorchilik bildiruvchilar tilga olingan bo'lsa, ularning yozma roziligi olinganligi haqidagi mas'ul muallif tomonidan imzolangan bayonot bo'lishi shart. Jurnal tomonidan nashr etilgan maqola tarkibining nashr huquqlari muallif(lar)ning roziligi asosida jurnalga o'tadi. Ushbu hujjat topshirish jarayonida PDF formatida ilova qilinishi lozim.

Creative Commons bayonoti

"Irrigatsiya va Melioratsiya" jurnalni maqolalari ochiq kirish (Open Access) maqolalari hisoblanadi va ular Creative Commons Attribution License CC BY-SA 4.0 litsenziyasi asosida chop etiladi. Ushbu litsenziya foydalanuvchilarga materialni istalgan shakl va formatda tarqatish, tahrirlash, moslashtirish hamda unga asoslanib yangi maqolalar yaratish imkonini beradi, agar maqola muallifiga tegishli tarzda havola keltirilsa.

Litsenziya tijorat maqsadlarida foydalanishga ham ruxsat beradi. Agar siz materialni qayta ishlasangiz yoki asosida yangi mahsulot yaratsangiz, o'sha yangi material ham ayni litsenziya asosida tarqatilishi kerak.

CC BY-SA litsenziyasining asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- BY (Attribution) - Maqolaning yaratuvchisi ko'rsatilishi shart
- SA (ShareAlike) - Yaratuvchi tomonidan o'zgartirilgan maqolalar ham xuddi shu litsenziya asosida tarqatilishi lozim.

Jurnalning yo'naliishi va ochiq kirish siyosati

- **"Irrigatsiya va Melioratsiya"** jurnalni - irrigatsiya va melioratsiya, gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalari, irrigatsiya va melioratsiya ishlarini

mexanizatsiyalash, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish, suv xo'jaligi iqtisodi va er resurslaridan foydalanish, suv xo'jaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlash, irrigatsiya va melioratsiya sohasida ilmiy va amaliy yo'nalishdagi maqolalarni nashr etadi. Jurnal ochiq kirish (Open Access) tamoyiliga amal qiladi — maqolalarni chop etish va yuklab olish mutlaqo bepul. Barcha maqolalar va sonlar quyidagi arxiv havolasi orqali ochiq tarzda mavjud: <http://jurnal.tiiame.uz/en/page/arxiv>

Jurnal topshirilgan va taqrizdan o'tgan maqolalarni rasmiy veb-saytida e'lon qiladi va bu orqali o'quvchilarga ularga ochiq kirish imkonini yaratadi. Taqriz jarayoni yashirin (half-blind review) shaklida olib boriladi: barcha maqolalar avval muharrir tomonidan jurnal yo'nalishiga moslik jihatidan dastlabki baholashdan o'tadi. Agar maqola mazmunan mos deb topilsa, u kamida ikki nafar mustaqil ekspert taqrizchisiga ilmiy sifat bo'yicha baholash uchun yuboriladi. Maqolaning qabul qilinishi yoki rad etilishi to'g'risidagi yakuniy qarorni bosh muharrir qabul qiladi va bu qaror so'nggi hisoblanadi.

Mualliflar yuborilgan maqola ularning original ishi ekanligini, undagi ma'lumotlar, grafiklar, jadvallar, rasmlar va boshqa illyustratsiyalar o'zlariga tegishli ekanini tasdiqlashlari shart. Shuningdek, maqola ilgari boshqa biror joyda chop etilmagan va hozirda boshqa nashrda ko'rib chiqilmayotgan bo'lishi kerak. Agar maqolaning biror qismi ilgari chop etilgan bo'lsa, jurnal bu maqolani qabul qila olmaydi. Mualliflar maqola bilan birga Mualliflar bayonoti (Author's Declaration) formasini ham imzolab, jurnal saytiga yuklashlari lozim.

Etika va noqonuniy harakatlarning oldini olish

"Irrigatsiya va Melioratsiya" (I&M) jurnali — elektron shaklda nashr etiladigan, xalqaro ilmiy taqriz asosida baholanadigan jurnal bo'lib, nashr etikasi bo'yicha eng yuqori standartlarga rioya etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'quvchilarga yuqori sifatli ilmiy nashrlarni taqdim etish uchun biz ushbu "Nashr etikasi va noqonuniy harakatlar to'g'risidagi bayonot"da belgilangan tamoyillarga sodiqligimizni bildiramiz.

Ushbu standartlarga mos kelmaydigan har qanday maqola, agar nashr etishdagi buzilishlar (noto'g'ri xatti-harakatlar) istalgan vaqtida aniqlansa — hatto chop etilgandan keyin ham — jurnal sahifalaridan olib tashlanadi. I&M barcha maqolalarni yashirin taqriz (half-blind peer review) asosida tekshiradi. Shuningdek, jurnal plagiat, tadqiqot ma'lumotlarini soxtalashtirish (ma'lumotlarni to'qib chiqarish), mavjud ma'lumotlarni o'zgartirish (jadval, rasm yoki grafiklar bilan manipulyatsiya), va insonlar yoki hayvonlardan noto'g'ri foydalanish holatlarini aniqlash uchun tekshiruv o'tkazadi. Nashr etish kodeksiga muvofiq, jurnal plagiat yoki maqolani takroriy chop etish holatlari yuzasidan shubha tug'ilganda, bu haqida tegishli tashkilotlarga xabar beradi.

Jurnal topshirilgan barcha maqolalarni tekshirish uchun iThenticate Plagiarism Software (CrossCheck) dasturidan foydalanish huquqini saqlab qoladi. Taqdim etilgan

materiallar bir nechta ma'lumotlar bazasi bilan taqqoslanadi.

Faqat mualliflarning o'zлari tomonidan taqdim etilgan maqolalar qabul qilinadi. Maqolani yuborgan muallif uni topshirish va taqriz jarayoni bo'yicha barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

I&M — elektron jurnal bo'lib, kollegial taqriz (half-blind review) jarayonini qo'llaydi. Har bir ishtirokchi, jumladan mualliflar, taqrizchilar va muharrirlar nashrga jalg qilinganlarida, ular nashr etikasi bo'yicha belgilangan axloqiy tamoyillarga rioya qilishlarini qabul qilgan deb hisoblanadi.

I&M jurnali etik standartlari COPE (Nashr Etikasi bo'yicha Qo'mita) tomonidan ishlab chiqilgan Jurnal muharrirlari uchun Xulq-atvor kodeksi va Eng yaxshi amaliyot bo'yicha qo'llanmaga to'liq mos keladi.

Muharrirlarning vazifalari

Muharrirlar kelib tushgan maqolalarning jurnal doirasiga mos kelishini baholaydilar. Tegishli maqolalar to'liq tashqi ekspertiza (peer review) uchun yuboriladi. Agar maqola jurnal mavzusiga mos kelmasa, muallifga imkon qadar tez qaytariladi, bu esa muallifga uni boshqa jurnalga o'z vaqtida yuborish imkonini beradi.

Muharrirlar tahririyl kontent ustidan to'liq vakolatga ega bo'lib, taqriz jarayonini boshqarish uchun javobgardirlar. Bosh muharrir maqolani nashr etish yoki etmaslik bo'yicha yakuniy qarorni qabul qiladi.

Muharrir maqolalarni faqat ularning ilmiy mazmuniga asosan baholashi kerak, muallifning irqi, jinsi, dini, millati yoki siyosiy qarashlaridan qat'i nazar.

Taqrizchilarning (peer-reviewers) vazifalari

Taqriz jarayoni muharririga ilmiy qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Shuningdek, muharrir va muallif o'rtasidagi muloqot orqali maqola sifatini oshirishga hissa qo'shadi.

Agar taklif etilgan taqrizchi o'zini maqolani baholashga yetarli malakaga ega emas deb hisoblasa yoki manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lsa, bu haqida muharririga zudlik bilan xabar berishi kerak. Agar taqrizni belgilangan muddatda bajara olmasligi ma'lum bo'lsa, bu holatda ham muharririga oldindan ogohlantirishi va o'zini bu jarayondan chetlashtirishi lozim.

Maqola bilan bog'liq barcha ma'lumotlar maxfiy saqlanishi shart. Taqriz jarayonidagi maqola boshqa shaxslar bilan muhokama qilinmasligi yoki ularga ko'rsatilmasligi kerak.

Mualliflarning mas'uliyatlari

- Muallif(lar) maqola topshirishdan oldin "I&M" jurnalining mualliflar uchun ko'rsatmalarini diqqat bilan o'qishlari va ularga to'liq amal qilishlari shart.
- Muallif(lar) topshirilayotgan maqola (yoki uning biror qismi) hozirda boshqa jurnalda ko'rib chiqilmayotganini va ilgari hech qayerda chop etilmaganini (yoki agar chop

etilgan bo'lsa, bu haqda maqolada tegishli manbalar keltirilganligini) rasman tasdiqlashlari lozim.

- Muallif(lar) maqola original bo'lishi, ilmiy me'yorlarga to'liq javob berishi va jurnal tomonidan belgilangan havola keltirish qoidalariga muvofiq to'liq manbalar bilan ta'minlangan bo'lishini ta'minlashlari kerak.
- Har bir muallif maqolaning tayyorlanish jarayonida faol ishtirok etgan bo'lishi, tadqiqot rejasini tuzish, ma'lumot yig'ish yoki natijalarni tahlil qilishda muhim hissa qo'shgan bo'lishi, maqolani yozgan yoki tanqidiy ko'rib chiqqan, va uning yakuniy variantini tasdiqlagan bo'lishi lozim.
- Muallif(lar) maqolada ko'rsatilgan barcha shaxslar muallif sifatida rozi ekanligini va mualliflik mezonlariga javob beradigan hech bir shaxs e'tibordan chetda qolmaganini ta'minlashlari kerak.
- Muallif(lar) maqola onlayn ochiq kirish shaklida nashr etilishi va mualliflarning ism-sharifi, ish joyi va mas'ul muallifning elektron pochta manzili maqola bilan birga chop etilishiga barcha mualliflar rozi ekanini ta'minlashlari shart.
- Muallif(lar) mualliflik huquqlari to'g'risidagi shakldagi barcha shartlarni diqqat bilan o'qib chiqishlari va maqolani topshirish jarayonida ushbu shartlarga rozilik bildirishlari lozim.
- Muallif(lar) maqola nashr etish jarayonining istalgan bosqichida yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lsa, bu haqda ochiq bayon qilishlari kerak.
- Zarurat tug'ilganda muallif(lar) muharrirlar bilan maqolani tuzatish yoki qaytarib olish bo'yicha hamkorlik qilishlari kerak. Agar chop etilgan maqolada aniq xatolik aniqlansa, muallif(lar) bu haqida muharrirlarni zudlik bilan xabardor qilishlari lozim.
- Maqola jurnalning tahririyl talablariga muvofiq formatda tayyorlangan bo'lishi shart. Aks holda, maqola jurnal muharriri tomonidan rad etilishi mumkin.

Taqriz jarayoni

I&M jurnalida taqriz jarayoni "yashirin taqriz (half-blind review)" shaklida amalga oshiriladi. Bu shuni anglatadiki, taqrizchilarining shaxsi mualliflardan yashiriladi.

Taqrizchilar jurnalning bosh muharriri yoki mas'ul muharriri tomonidan tayinlanadi. Biroq, taqrizchi nomzodlari mualliflar yoki boshqa taqrizchilar tomonidan taklif etilishi ham mumkin.

Taqrizchilarining mas'uliyatlari

- Taqrizchi(lar) faqatgina o'zining ixtisoslik sohasiga tegishli bo'lgan va baholashga yetarlicha malakaga ega bo'lgan maqolalarni ko'rib chiqishga rozilik bildirishi kerak.
- Taqrizchi maqolani ko'rib chiqish taklifini olganidan so'ng, agar u o'zini bu ishga noloyiq deb hisoblasa yoki belgilangan muddatda yakunlay olmasligiga ishonch hosil qilsa, bu haqida muharrir(lar)ga zudlik bilan xabar berishi kerak.
- Taqrizlar (muharrirlar, yordamchi muharrirlar va taqrizchilar tomonidan yozilgan) quyidagi jihatlar bo'yicha fikr bildirishi zarur: maqolaning yo'nalishi, ilmiy yangiligi, maqsadi, metodologiyasi, olingan natijalar, muhokama, foydalanilgan adabiyotlar va yozilgan tilidagi ifoda sifati.

- Taqrizchi(lar) o'ziga topshirilgan maqola bilan bog'liq istalgan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lsa, bu haqda muharrir(lar)ga xabar berishi kerak.
- Agar taqrizchi(lar) maqolani ko'rib chiqqa olmasa, u holda ushbu yo'nalish bo'yicha boshqa mutaxassisni taklif qilishi so'raladi.
- Taqrizchi(lar) maqolani maxfiylik asosida ko'rib chiqishi va hali chop etilmagan maqoladagi ma'lumotlardan o'zining kelajakdagi tadqiqotlari uchun foydalanmasligi kerak.
- Taqrizchi(lar)ning asosiy vazifasi — maqola sifatini oshirishga hissa qo'shish, obyektiv baholash va konstruktiv tanqid bildirishdir.
- Agar taqrizchi ko'rib chiqayotgan maqolada ilgari chop etilgan yoki boshqa jurnalda ko'rib chiqilayotgan maqola bilan o'xhashlik mavjudligini aniqlasa, bu haqida muharrirga xabar berishi shart.

Plagiatning oldini olish

Maqolalar topshirilgandan so'ng, ular **iThenticate** xalqaro plagiat aniqlovchi dasturi orqali tekshiriladi. Agar o'xhashlik indeksi **30% dan yuqori** bo'lsa, maqola darhol rad etiladi.

Etika masalalarida **COPE** (<https://publicationethics.org/core-practices>) ko'rsatmalariga amal qilinadi.

Mualliflar uchun eslatmalar

- Muallif(lar) faqat original ilmiy ishlar yozilganligini ta'minlashi kerak.
- Maqola ilgari hech qayerda chop etilmagan yoki boshqa jurnalda ko'rib chiqilmayotgan bo'lishi kerak.
- Boshqa mualliflar, manbalar yoki internet saytlardan olingan istalgan fikr yoki matnlar tegishli manba ko'rsatgan holda havolalangan bo'lishi shart.
- Muallif maqolani topshirishdan oldin lingvistik tahrirdan o'tkazish uchun javobgardir.
- Muallif maqola uning shaxsiy hissasini bildirishi va boshqa manbalardan to'liq yoki qisman ko'chirib olinmaganini tasdiqlashi kerak.
- Barcha mualliflar tadqiqot natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan moliyaviy yoki boshqa manfaatlar to'qnashuvini ochiqlashi kerak.
- Agar maqola chop etilgach, unda muhim xatolik yoki aniqlik yetishmovchiligi topilsa, muallif muharrirni darhol xabardor qilib, maqolani tuzatish yoki qaytarib olish bo'yicha hamkorlik qilishi shart.
- Har bir muallif maqolani topshirishdan oldin nashr litsenziyasi shartlariga rozi bo'ladi.
- Barcha maqolalar onlayn topshirish tizimi orqali yuborilishi kerak.
- Bir vaqtning o'zida bir nechta jurnallarga maqola yuborish nashr etikasi buzilishi hisoblanadi.

Muharrirlar va taqrizchilar

- Muharrirlar har bir maqola uchun yashirin (half-blind) taqriz jarayonining xolisligini ta'minlashi kerak.
- Muharrirlar mualliflar va taqrizchi xodimlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga intiladi.
- Nashr etilmaguncha, topshirilgan maqolaga oid barcha ma'lumotlar maxfiy saqlanishi

kerak.

- Muharrirlar ishini bosh muharrir muvofiqlashtiradi.

Taqrizchilarning etikasi

Taqrizchilar maqolalarni muallifning irqiy, jinsiy, diniy, fuqarolik, siyosiy e'tiqodi yoki shaxsiy qarashlaridan qat'i nazar, faqat ilmiy mazmun asosida baholashlari kerak.

- Ular barcha ma'lumotlarni maxfiy saqlashi va muallif tomonidan mualliflik huquqi buzilishi yoki plagiatsiz mavjud bo'lsa, bu haqida bosh muharririga xabar berishlari lozim.
- Taqrizchilar o'z fikrlarini aniq, asosli va ob'yektiv shaklda bildirishlari kerak.
- Agar taqrizchi o'zini maqola mavzusini baholashga noloyiq deb hisoblaydi yoki o'z vaqtida yakunlay olmaydi deb o'ylasa, bu haqida bosh muharririga xabar berib, jarayondan chiqishi kerak.

Qo'shimcha fayllar

Mualliflarga maqola topshirishga oid har qanday qo'shimcha talablar bo'yicha elektron pochta orqali xabar beriladi.

- Maqola qabul qilinganidan so'ng, u tahrirlangan nusxada muallifga qaytariladi, shunda muallif uni ko'rib chiqishi va kerakli o'zgarishlarni kiritishi mumkin. Muallif 1-2 hafta ichida yakuniy versiyasini qayta yuborishi kerak.
- PDF shakliga keltirilgach, muallif nashrdan oldingi yakuniy tekshiruv uchun hujjatni ko'rib chiqadi. Bu maqolaga o'zgartirish kiritish uchun so'nggi imkoniyat bo'ladi.
- Muallif tahrirlarni 2-4 kun ichida yuborishi kerak.
- Mualliflik bayonotini shu yerda yuklab oling.

Ochiq kirish bayonoti

"Irrigatsiya va Melioratsiya" jurnali ilmiy natijalarini keng tarqatishni o'z oldiga maqsad qilgan nashr sifatida, barcha maqolalarga cheklovatarsiz darhol ochiq kirishni ta'minlaydi. Jurnal veb-saytidagi barcha materiallar foydalanuvchi yoki u tegishli bo'lgan muassasa uchun butunlay bepul taqdim etiladi. Foydalanuvchilar maqolalarning to'liq matnlarini o'qish, yuklab olish, ko'paytirish, tarqatish, chop etish, izlash yoki havola qilish, yoki boshqa qonuniy maqsadlar uchun foydalanishlari mumkin, bu uchun nashriyot yoki muallifdan oldindan ruxsat so'rash talab etilmaydi.

Jurnal maqolani ko'rib chiqish (submission) yoki chop etish (Article Processing Charges – APC) uchun hech qanday to'lov olmaydi hamda mualliflarga gonorar to'lamaydi.

Ochiq kirishning mualliflar uchun afzalliklari:

- Dunyo bo'yicha barcha foydalanuvchilar uchun erkin va bepul kirish
- Mualliflar o'z ishining mualliflik huquqini saqlab qoladilar
- Maqolalarning ko'proq ko'rinishi va o'quvchilarga yetib borishi (turli ma'lumotlar bazalari orqali)
- Nisbatan tez nashr etish imkoniyati

- Hududiy cheklovlarsiz global auditoriyaga chiqish
- Yashirin to'lovlarsiz adolatli va shaffof nashr jarayoni

Maxfiylik Bayonoti

- Ushbu jurnal saytiga kiritilgan ism va elektron pochta manzillari faqat ushbu jurnalning ko'rsatilgan maqsadlari uchun ishlataladi va boshqa maqsadlarda yoki boshqa tomonlarga taqdim etilmaydi.

"Irrigatsiya va Melioratsiya" seriyasi tomonidan olingan har qanday shaxsiy ma'lumot faqat quyidagi maqsadlarda ishlataladi:

- ushbu veb-saytni boshqarish;
- veb-saytni siz uchun shaxsiylashtirish;
- veb-sayt xizmatlaridan foydalanishingizga imkon yaratish;
- maqolangizni ko'rib chiqish;
- maqolangizni nashr qilish;
- maqolangiz bo'yicha sizga xabarlarni yuborish.

Moliyaviy manbalar:

"Irrigatsiya va Melioratsiya" jurnali Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti – Milliy tadqiqot universiteti (TIIAME) tomonidan institut darajasida qo'llab-quvvatlanadi va bu qo'llab-quvvatlash jurnalning nashr jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni qoplashga xizmat qiladi.

Agar jurnal boshqa manbalardan (masalan, mualliflik to'lovlari, qayta nashrlar, tashqi homiylik) daromad olsa, bu haqda ochiq va oshkora tarzda jurnalning veb-saytida ma'lumot beriladi. Shuni ta'kidlash muhimki, agar kelajakda nashr to'lovlari joriy qilinsa yoki imtiyozlar mavjud bo'lsa, bu holatlar tahririy qarorlar qabul qilinishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Jurnal tahririy mustaqillikni qat'iy saqlaydi va barcha qarorlar faqat maqolalarning ilmiy sifati va dolzarbligiga asoslangan holda qabul qilinadi.

Reklama siyosati:

"Irrigatsiya va Melioratsiya" jurnali hozirda hech qanday reklama faoliyatini olib bormaydi. Kelgusida reklama joylashtirish ko'rib chiqiladigan bo'lsa, bu boradagi siyosat quyidagicha bo'ladi: har qanday reklama tahririy mazmundan qat'iyan ajratiladi va reklamalar tahririy qarorlarga ta'sir ko'rsatmaydi. Qaysi turdagি reklamalar qabul qilinishi va ularning joylashtirilishiga oid qarorlar qat'iy siyosat asosida qabul qilinadi hamda bu siyosat jurnal veb-saytida ochiq e'lon qilinadi.

To'g'ridan-to'g'ri marketing:

"Irrigatsiya va Melioratsiya" jurnali maqola qabul qilish, ilmiy hamjamiyat bilan aloqa o'rnatish va soha mutaxassislariga murojaat qilish uchun maqsadli va professional to'g'ridan-to'g'ri marketing faoliyatlarini amalga oshiradi. Barcha marketing faoliyatlari etika me'yorlariga muvofiq, halol va chalg'ituvchi bo'lmagan tarzda olib boriladi. Jurnal haqidagi barcha axborotlar aniq, ishonchli va haqqoniy bo'lishi ta'minlanadi. Bizning maqsadimiz — jurnal va uning mazmunini professional va ochiq muloqot asosida ilmiy

hamjamiyatga yetkazishdir.

Mualliflar uchun

“Irrigatsiya va Melioratsiya” ilmiy-texnik jurnali O’zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2015 yil 4 martda ro’yxatdan o’tkazilgan (guvoxnomasi №0845).

Jurnal muassisi: O’zbekiston Respublikasi Suv xo’jaligi vazirligi, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti.

Xalqaro standart seriya raqami - ISSN 2181-8584

“Irrigatsiya va Melioratsiya” ilmiy-texnik jurnali O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Prezidiumining 2015 yil 22 dekabrdagi №219/5 sonli qarori bilan 05.00.00-Texnika fanlari, 06.00.00-Qishloq xo’jaligi fanlari, 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo’yicha dissertatsiya natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“Irrigatsiya va Melioratsiya” ilmiy-texnik jurnali bir yilda 4 marta har chorak yakunlari bilan chop etiladi.

Maqolalarini chop etuvchi mualliflardan maqolalar uchun to’lovlar talab etilmaydi.

“Irrigatsiya va Melioratsiya” ilmiy-texnik jurnali [eLIBRARY.RU – Rossiya ilmiy iqtiboslik indeksi \(RINS\)](#) bazasiga kiritilganligi va boshqa yirik nashriyotlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirayotganligi uchun maqolalar istisno tariqasiz jurnalning veb sahifasida ochiq e’lon qilinadi.

“Irrigatsiya va Melioratsiya” ilmiy-texnik jurnalida yoritiluvchi tematikalar:

- *Irrigatsiya va melioratsiya;*
- *Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalari;*
- *Irrigatsiya va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash;*
- *Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash;*
- *Qishloq va suv xo’jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish;*
- *Suv xo’jaligi iqtisodi va er resurslaridan foydalanish;*
- *Suv xo’jaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlash;*
- *Irrigatsiya va melioratsiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar.*

“Irrigatsiya va Melioratsiya” ilmiy-texnik jurnali umumiy sharhdan va axborot shaklidagi ilmiy maqolalarni nashr uchun qabul qilmaydi.

Tahririyatga taqdim etilayotgan qo’lyozma bo’yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining yo’llanma xati, maqolani chop etish mumkinligi xaqidagi ekspert xulosasi hamda taqriz bo’lishi kerak.

Maqolaning yozilish tili, tuzilishi va tarkibi

Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.

Maqola keng omma uchun tushunarli tilda, grammatika qoidalariga amal qilgan holda yozilgan bo'lishi kerak.

Maqola o'zida muayyan ilmiy tadqiqotning tugal echimlarini yoki uning bosqichlarini ifodalashi zarur.

Sarlavha maqolaning mazmuni to'g'risida axborot bera olishi, imkon qadar qisqa bo'lishi va umumiy so'zlardan iborat bo'lib qolmasligi kerak.

Odatda ilmiy maqolada quyidagilar bo'lishi kerak:

- universal o'nlik tasnifi (UO'T)
- maqolaning sarlavhasi (uch tilda);
- annotatsiya (uch tilda);
- tayanch so'zlar (uch tilda);
- kirish, qaralayotgan muammoning hozirgi holatining tahlili va manbaalarga havolalar;
- masalaning qo'yilishi;
- echish usuli (uslublari);
- natijalar tahlili va misollar;
- xulosa;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- muallif(lar) to'g'risida ma'lumot.

Maqolada odatda qabul qilingan atamalardan foydalanish, yangi atama kiritganda, albatta uni aniq asoslab berish kerak.

Fizik kattaliklarning o'lchov birliklari Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI) ga mos bo'lishi kerak.

Jurnalga ilgari e'lon qilinmagan maqolalar qabul qilinadi.

Maqolada muallif o'zining ishlariga havolalar soni haddan ziyod oshirib yubormasligi, ko'pi bilan 20-25 foizgacha bo'lishi tavsiya etiladi. Agar o'z ishiga havolalar soni ko'payib ketsa, bu holatni asoslab berishi kerak.

Tahririyat ko'chirmachilik (plagiat), o'zgalarning ishlarini o'zlashtirib olishga salbiy qaraydi. Shuning uchun mualliflardan ishga jiddiy munosabatda bo'lishi va havola qilish qoidalariga bo'ysunishi: kvadrat qavs ichida bibliografik havolani qo'yishni yoddan chiqarmasligi so'raladi.

Maqolaga qo'yiladigan texnik talablar

Maqolaning sarlavhasi, muallif (lar) va u(lar)ning lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi, annotatsiya, tayanch so'zlar (uch tilda) bir ustunda yoziladi. Maqolaning qolgan matnlari ikki ustunda yoziladi.

Maqola MS Word 2003-2010 matn muharririda yozilishi va quyidagi ko'rsatkichlarga muvofiq qat'iy rasmiylashtirilishi kerak:

- A4 formatda;
- matn sahifasining chekkalarida 2 sm. dan joy qoldiriladi;
- Times New Roman shriftida;
- maqola uchun shrift hajmi - 12 pt, jadvallar bundan mustasno;
- jadvallar uchun shrift hajmi - 10 pt;
- qator oralig'i - 1,15 interval;
- matn sahifa kengligi bo'yicha tekislanadi;
- Xat boshi - 1 sm ("Tab" yoki "Probel" tugmalaridan foydalanmasdan)

Quyidagilarga ruxsat etilmaydi:

- sahifalarni raqamlash;
- matnda sahifani avtomatik bo'lishdan foydalanish;
- matnda avtomatik havolalardan foydalanish;
- avtomatik bo'g'in ko'chirish;
- kamdan-kam hollarda ishlataladigan yoki qisqartma harflarni qo'llash.

Jadvallar MS Word dasturida yoziladi. Jadvalning tartib raqami va nomi jadvalning yuqorisida yoziladi. 3- ilovaga qarang.

Grafikli materiallar (rangli rasmlar, chizmalar, diagrammalar, fotosuratlar) o'zida tadqiqotning umumlashtirilgan materiallarini ifodalashi kerak. Grafikli materiallar yuqori sifatli bo'lishi kerak, agar zarurat tug'ilsa, tahririyat ushbu materiallarni alohida faylda 300 dpi dan kam bo'limgan o'lchamda jpg formatda taqdim etishni talab qilishi mumkin. Grafikli materialning nomi va tartib raqami pastki qismida keltirilishi zarur. 4- ilovaga qarang.

Formulalar va matematik belgilar MS Wordda o'rnatilgan formatli muharrirda yoki MathType muharriri yordamida bajarilishi kerak. 2- ilovaga qarang.

Jadvallar, grafikli materiallar ko'rsatilgan maydonidan chiqib ketmasligi lozim.

Tayanch so'zlar (o'zbek, rus, ingliz tillarida) – 5-10 ta so'z va iboralardan iborat bo'lishi kerak. Tayanch so'zlar va iboralar bir-biridan vergul bilan ajratiladi. Keltirilgan tanyach so'zlar tadqiqot mavzusini juda aniq aks ettirishi shart.

Annotatsiya (o'zbek, rus, ingliz tillarida) – annotatsiya hajmi 200-250 ta so'zdan iborat bo'lishi va maqolaning tuzilishini qisqacha ifodalovchi, axborot shaklida berilishi kerak. Annotatsiya boshqa tilga tarjima qilinganda ma'no va mazmun jihatidan asl matnga mos kelishi kerak. Bunda annotatsyaning hajmi belgilangan so'zlar sonidan oshib ketishi mumkin.

Kirish. Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va ob'ekti tavsiflanadi. Dunyo olimlari tomonidan chop etilgan ilmiy maqolalarning tahlili keltiriladi. CHop etilgan adabiyot manbalarida qo'yilgan ilmiy izlanishlarning echimi yo'qligi tasdiqlangan holda muallifning ilmiy ishlari qaysi olimlarning ishiga asoslanganligi ko'rsatiladi.

